Azimova Shohista Salohiddinova	
SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLI MARKIROVKALANGAN TOVARLARNI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI	770
Muxammadov Nodir Karimovich	
BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA "LEAN MANAGEMENT" TIZIMINI JORIY ETISHNING ILMIY ASOSLARI	775
Muhiddinov Ozodbek Ikromjon o'g'li, Shakirova Gulrux Po'latjon qizi, Ozodbek Musayev	
EXPANSION OF FINANCIAL OPPORTUNITIES FOR THE INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	779
Daniyarov Kuatbay	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TURISTIK POTENTIALI UMUMIY TAVSIFI.....	783
Madaminova Sanobar Askarovna	



KICHIK BIZNES KORXONALARIDA EKSPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	789
Boymirzayev Zokirjon Mashrabbboyevich	



KICHIK BIZNES KORXONALARIDA EKSPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich

Namangan davlat texnika universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti

E-mail: zokirjon123boymirzayev23@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes korxonalarining eksport mahsulotlari ishlab chiqarishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Kichik biznes iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va tashqi bozorlarni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda kichik biznes korxonalari uchun eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy omillari, istiqbollari va ularga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, eksport mahsulotlari, diversifikatsiya, konsepsiya, eksport faoliyati, innovatsion infratuzilma, qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.

Abstract. This article analyzes the role and importance of small businesses in the production of export products. Small businesses play an essential role in diversifying the economy and expanding foreign markets. The study examines the main factors, prospects and influencing conditions for the development of export-oriented production for small businesses. In addition, a concept for the production of export products by small businesses has been developed.

Key words: small business, export products, diversification, concept, export activities, innovation infrastructure, support mechanisms.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение предприятий малого бизнеса в производстве экспортной продукции. Малый бизнес играет важную роль в диверсификации экономики и освоении внешних рынков. В исследовании рассмотрены основные факторы, перспективы и влияющие условия для развития экспортно-ориентированного производства малых предприятий. Также разработана концепция производства экспортной продукции предприятиями малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, экспортная продукция, диверсификация, концепция, экспортная деятельность, инновационная инфраструктура, механизмы поддержки.

KIRISH

Kichik biznes korxonalarining eksport mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishlari uchun konsepsiya yaratish zarur. Konsepsiya so'zining turli jihatdan ma'nolari mavjud bo'lib, ular ichida iqtisodiyotga taalluqli mazmuni ham mavjud. “Konsepsiya” (lotinchadan conceptio — to'plash, birlashtirish) qarashlar, fikr yuritish, dunyoni tushunish va anglash usulini bildiradi. Konsepsiya qandaydir hodisalarni tushuntirish va tushunish usuli bo'lib, masalaning yechimi yo'llarini aniqlash tizimini ifodalaydi. Shu bilan birga, konsepsiya harakatlar strategiyasini ham belgilaydi. Demak, konsepsiya deganda, biror sohaga oid harakatlar, qarashlar, fakt va hodisalarni mantiqiy birlashtiruvchi tushunish tizimi, hamda ushbu soha faoliyatini amalga oshirishda qo'llaniladigan tamoyillar tizimi tushuniladi. Kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasi — bu korxonalar oldiga qo'yilgan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish maqsadiga erishish yo'lida qo'llaniladigan usullar va qarashlar majmuasidir. Ya'ni, kichik biznes korxonalari tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish yo'llarini belgilovchi tizimdir.

Konsepsiya — eksport faoliyatini amalga oshirishdagi tamoyillar tizimini tartibga solishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, agar moliyaviy muomalalar tartibga solinmasa, ularning aniq qoidalari mavjud bo'lmasa, kishilar orasida kelishmovchiliklar yuzaga kelishi tabiiy. Demak, kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasi quyidagi uch yo'nalishni o'z ichiga oladi (1–rasm):

**Maqsadga erishish yo'lidagi qarashlar va tushunchalar****Maqsadlarga erishish yo'llari****Faoliyatni amalga oshirishdagi tamoyillar tizimi**

1-rasm. Kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasi

Kichik biznes korxonalari oldiga qo'yilgan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish maqsadiga erishish yo'lidagi barcha qarashlar va usullar majmuasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: maqsadlarga erishish uchun vazifalarni aniqlash va ularni amalga oshirish yo'llari; eksport faoliyatini amalga oshirishdagi tamoyillar tizimi. Kichik biznes korxonalari oldiga qo'yilgan eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadiga erishish yo'lidagi qarashlar aynan ushbu tamoyillar orqali ifodalanadi. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali eksport imkoniyatlarini oshirish masalalari mamlakat iqtisodchi olimlari — M. Sharifo'jayev, S. G'ulomov, A. O'lmasov, A. Vaxobov, Sh. N. Zaynutdinov, S. K. Salayev, Sh. Ergashxodjayeva, U. V. G'afurov, D. A. Artiqova, D. S. Alimatova, M. Ibragimova, Sh. Yuldashev, N. J. Nosirova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lib, biz ushbu tadqiqotda mazkur olimlarning yondashuvlari va fikr-mulohazalarini tahlil qilib chiqdik.

Mazkur konsepsiya doirasida kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarishni o'rganish uchun quyidagi tadqiqot metodologiyasi qo'llanilgan: nazariy tahlil orqali kichik biznesning eksport faoliyatiga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba va iqtisodiy modellar o'rganildi hamda eksport mahsulotlari ishlab chiqarishning kichik biznes rivojlanishiga ta'siri, asosiy tamoyillari va konseptual yondashuvlar tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar tahlili asosida esa milliy va xalqaro statistik ma'lumotlar orqali kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi, eksport hajmi va tarkibi ko'rib chiqildi, O'zbekistondagi kichik biznes korxonalari faoliyati bo'yicha davlat organlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan statistik hisobotlar o'rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik biznes korxonalari o'z faoliyati samaradorligiga erishish uchun sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi lozim bo'lib, buning uchun iqtisodiyotda ilm va innovatsiyalar rivojlanishi evaziga zamonaviy texnologiyalarni qo'shilgan qiymat zanjirlariga keng tatbiq etish, mehnat samaradorligini tubdan oshirish talab etiladi. Mamlakatimizda va xorijda ishlab chiqarilgan texnikalar va texnologiyalarni aniqlash, tahlil qilish va ular ichidan eng muqobilini tanlash kichik biznes korxonalari rahbarlari tomonidan qaror qabul qilish jarayonining muhim bosqichi sanaladi. Buning uchun eksport faoliyatini amalga oshirish zarur bo'lib, mazkur faoliyatda konsepsiya va reja muhim o'rin tutadi. Konsepsiya maqsadlarga erishishning asosiy yo'nalishini belgilab bersa, reja ushbu yo'nalishning bosqichlarini ajratadi va bajarishning aniq yo'llarini ko'rsatadi. Maqsadlarga erishish yo'llarini belgilashda kichik biznes korxonalari tashqi iqtisodiy munosabatlarga kirishib, eksport amallarini bajarish maqsadini qabul qilgan bo'lsalar, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish konsepsiyasi ushbu maqsadlarga erishish usullarini aniqlaydi, ularni amalga oshirishda qo'llaniladigan usullarni ko'rsatadi hamda strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.


Eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish konsepsiyasi eksport amallarini bajarish maqsadiga erishishga yordam beradigan qarorlar va harakatlar tizimidan iborat bo'lib, harakatlar tizimi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: imkoniyatlar tahlili, tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini aniqlash, tashqi bozorlar tahlili, resurslar taqsimoti, tashqi muhitga moslashish, ichki o'zgaruvchilarni aniqlash va ularga moslashish, eksport mahsulotlari ishlab chiqarish strategiyasini belgilash hamda vazifalarni amalga oshirish.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha quyidagi asosiy tahlillar o'tkazilib, natijalar aniqlangan: kichik biznes subyektlarining eksportdagi ulushi milliy iqtisodiyotning umumiy eksport hajmiga nisbatan cheklangan bo'lsa-da, ularning eksport salohiyati yuqori; kichik biznes korxonalari asosan oziq-ovqat mahsulotlari, to'qimachilik, qo'lda tayyorlanadigan buyumlar va agrar mahsulotlar eksportida faol ishtirok etmoqda; kichik biznes korxonalari ko'pincha eksport uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega emas; ko'pgina korxonalar ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olmayapti, bu esa mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi; mahsulotlarning xalqaro sertifikatlariga ega emasligi eksportni cheklaydi; eksport jarayonida tashish xarajatlarining yuqoriligi va logistika tizimining zamon talablari darajasida rivojlanmaganligi ham ushbu yo'nalishda qo'shimcha to'siq bo'lmoqda.

Eksportni rag'batlantirish quyidagi omillar orqali ta'minlanishi mumkin: davlat qo'llab-quvvatlovi – eksportga yo'naltirilgan kichik biznes korxonalari uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar berish samarali ekanligi aniqlangan; innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish – innovatsion mahsulotlar xalqaro bozorlarda ko'proq talabga ega bo'lib, ular orqali eksport hajmini oshirish mumkin; klaster yondashuvi – kichik biznes korxonalari birlashib klasterlar shaklida faoliyat olib borishi umumiy xarajatlarni kamaytirib, eksport salohiyatini oshiradi. Kichik biznes korxonasi o'z imkoniyatlari doirasida harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Shu sababli eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish konsepsiyasi asosida amalga oshiriladigan harakatlar tizimida birinchi navbatda imkoniyatlar tahlili o'tkaziladi.



2-rasm. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish konsepsiyasi asosida amalga oshiriladigan harakatlar tizimi.

Agar imkoniyatlar yetarli bo'lmagan taqdirda kichik biznes korxonalari biznes-rejani qayta tuzib, yetishmayotgan imkoniyatlarni yaratishga intiladilar va zarur hollarda tashqi yordamdan, ya'ni kreditlar tizimidan foydalanadilar. Kichik biznes korxonalarining eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish konsepsiyasi bu yo'nalishdagi barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Mazkur konsepsiya o'zgaruvchan bo'lib, uning o'zgarish jarayoni barcha boshqaruv funksiyalarini "soyabon" sifatida qamrab oladi. Ushbu konsepsiya va uni amalga oshirish jarayoni kichik biznes va tadbirkorlik korxonasi xodimlarini boshqarishga asos yaratadi. Hozirgi vaqtdagi o'zgarishlar, iqtisodiyotning globallasuvi, ilm-fanning jadallik bilan rivojlanishi sharoitida kelajakdagi muammo va vaziyatlarni bashorat etishning asosiy vositalaridan biri – eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasidir. U kichik biznes korxonasi nimaga erishmoqchi ekanligini, uning harakat yo'nalishlari va maqsadlarini aniqlashga yordam beradi.

Kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish konsepsiyasi ularning rahbarlari qabul qilgan harakat va qarorlar yig'indisi bo'lib, korxonani o'z maqsadiga erishish uchun strategiyani samarali amalga oshirishga yo'naltiradi. Mazkur konsepsiyaning vazifasi kichik biznes korxonalarida eksportga mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi yangi loyiha va o'zgarishlarni zarur darajada ta'minlashdan iborat. Ushbu konsepsiyani amalga oshirish jarayonida kichik biznes korxonalaridagi resurslarni taqsimlash amalga oshiriladi. Bu jarayonda chegaralangan tashkiliy resurslar – fondlar, tanqis bo'lgan boshqaruv qobiliyatlari va texnologik tajriba taqsimlanadi. Kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish konsepsiyasining muhim tashkiliy qismi – ichki va tashqi muhitni o'rganishdir.



O'rganish natijasida kichik biznes korxonalarining tashqi muhit bilan aloqalarini yaxshilaydigan strategik harakatlarni amalga oshirish bo'yicha strategiya qabul qilinadi. Kichik biznes korxonalari tashqi qulay sharoitlar va xavflarni o'rganishi shart, chunki tijoratda foyda ko'rish ehtimoli bilan birga zarar ko'rish ehtimoli ham mavjud. Tijoratda insonning mehnati, mahorati va atrof-muhitdagi tabiiy omillar foyda yoki zarar ko'rishiga ta'sir qiladi. Savdogar foyda ko'rishga umid qilgan holda, zararga uchrash ehtimolini ham bo'yniga olib ish boshlaydi. Shu sababli ular tashqi muhit sharoitlariga qarab o'z strategiyasini samarali muvofiqlashtirishni ta'minlashi lozim.

3. Eksport faoliyatini amalga oshirishdagi tamoyillar tizimi. Kichik biznes korxonalari eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish konsepsiyasida bu faoliyatni amalga oshirishdagi tamoyillar tizimi muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, har qanday faoliyat ma'lum qonun va tamoyillarga asoslanadi. Jumladan, kichik biznes korxonalarida eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyati ham tegishli qonunlar va tamoyillarga bo'ysunadi.

Hozirgi vaqtdagi kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati ushbu faoliyat amalga oshirilayotgan jamiyat qonunlari tizimiga asoslanadi. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish jarayonida nazariy asoslarni hisobga olmasdan, nazariy jihatdan tushunmasdan hamda ilmiy jihatdan asoslanmagan holda biron-bir masalani hal etish yoki qaror qabul qilish maqsadga muvofiq emas. Aks holda, bu yo'nalishda qabul qilinayotgan qarorlarning samarasi pasayishi, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar o'rniga sifatsiz va raqobatga mos kelmaydigan mahsulotlar ishlab chiqarilishi, hatto ushbu faoliyatning umuman samara keltirmasligi yoki kichik biznes korxonalari uchun salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Kichik biznes korxonalarida amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy faoliyatda shu yo'nalishdagi qonun-qoidalar qanchalik mukammal va izchil foydalanilsa, ushbu korxonalardagi ishlab chiqarish va mehnat jarayoni shunchalik yuqori darajada samarali bo'ladi. Hozirgi vaqtda eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va boshqarishga taalluqli qonunlarni hisobga olmaslik jamiyat uchun kutilmagan salbiy oqibatlariga olib keladi. Savdogar xarajat qilib, odamlarga kerakli mollarni olib keladi, saqlaydi va boshqa xizmatlarni bajaradi. Jarayonlarning qonunlarga asoslanishini e'tiborsiz qoldirish, bu qonunlarni hisobga olmaslik yoki yetarli darajada e'tibor bermaslik faoliyat yakunida inqirozni yuzaga keltirishi mumkin. Tadbirkorlar ushbu haqiqatni yaxshi bilishlari va hisobga olishlari zarur.

Hozirgi iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida va turli xavflar mavjud bo'lgan vaziyatlarda nazariy asoslar hamda qonunlarni birinchi darajali muhim omillar sifatida baholash lozim. Bu qonunlar qatorida barcha faoliyat uchun umumiy bo'lgan qonunlar bilan birga, ayrim faoliyat turlari uchun mavjud bo'lgan qonunlar ham mavjud. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyatida jamiyat rivojiga xos umumiy qonunlar bilan bir qatorda, tashqi iqtisodiy faoliyatgagina tegishli bo'lgan o'z qonunlari va tamoyillari mavjud. Ushbu qonunlarni faoliyat jarayonida hisobga olish va ularga amal qilishni tashkil etish mumkin. Ularga amal qilingan taqdirda eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoni samarali faoliyat bo'la oladi. Buni O'zbekiston Respublikasi eksportida tayyor mahsulotlar ulushining 70% dan oshib ketganida ham kuzatish mumkin. Raqamlar shundan dalolat beradiki, hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida barcha band aholining 77,9% mehnat qilmoqda. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyatini uning qonun-qoidalar va tamoyillarini hisobga olmasdan olib borish samarasizlik sari qo'yilgan qadam bo'ladi. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyatining ushbu xususiy qonunlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish obyekti va subyekti o'rtasidagi obyektiv, o'ta muhim, ma'lum darajada takrorlanadigan, nisbiy, turg'un, aniqlik va mohiyat bilan umumiy bog'lanish hamda aloqadorliklar o'z ifodasini topadi. Bu umumiy bog'lanish va aloqadorliklar ma'lum shart-sharoitlarda voqealar rivojining yo'nalishi va xususiyatini belgilab beradi. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyati uning barcha darajalarida barcha uchun majburiy bo'lgan me'yor, qoida, tamoyil va moyilliklar orqali ta'riflanadi va ifodalanadi. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyati tamoyili deganda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan rahbarlar faoliyatining umumiy asosini tashkil etuvchi qonun-qoidalar to'plami tushuniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari keng o'rganildi. O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi: Kichik biznes korxonalari mamlakatning iqtisodiy diversifikatsiyasi va bandlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi, ular eksport faoliyati orqali xalqaro bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llamaslik, xalqaro standartlarga mos kelmaslik, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va rivojlanmagan logistika tizimi eksport faoliyatini cheklayotgan omillar sirasiga kiradi. Xalqaro bozorda muvaffaqiyat qozonish uchun mahsulotlarning yuqori sifatli, innovatsion va raqobatbardosh narxlarda bo'lishi talab etiladi. Eksportni rag'batlantirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish hamda kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Kichik biznes korxonalariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun imtiyozli kreditlar va grantlar taqdim etilishi, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ilmiy tadqiqot institutlari va xususiy sektor o'rtasida



hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Kichik biznes uchun xalqaro standartlar asosida sertifikatlash tizimini soddalashtirish va tezkor xizmatlarni yaratish, mahsulotlarni sertifikatsiyalash jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali ularning eksport salohiyatini oshirish mumkin. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlar uchun maxsus logistika markazlari va transport koridorlarini tashkil etish hamda eksportga yo'naltirilgan startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat va xususiy hamkorlik dasturlarini yo'lga qo'yish kichik biznesning raqobatbardoshligini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Eksportni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarining Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiq lashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-228-son farmoni. <https://lex.uz/docs/-7283095>
3. Boymirzayev Z. M. "Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijga eksport qilish imkoniyatlari va mexanizmlari". Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, Vol. 4 No. 05 (2024). <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>
4. Boymirzayev Z. M. "Kichik biznes korxonalari eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasi". Muhandislik va iqtisodiyot jurnali, elektron nashr, 262-bet, №5, 2024-yil. <https://muhandislik-iqtisodiyot.uz>
5. Boymirzayev Z. M. "Tadbirkorlik sub'ektlari eksport faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari". Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar jurnali, ISSN 2181-7286, 5/2025.
6. Boymirzayev Z. M. "Kichik va o'rta biznes korxonalarini eksport tovarlar ishlab chiqarish strategiyalarining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari". Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar jurnali, 4-son, TDTU, 2021-yil sentyabr (OAK), B. 23–28.
7. Собиров О. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikda бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботларини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш. Монография. Наманган, 2022.
8. Sobirov O. Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari. 2024.
9. Hakimov B. J., Alimov B. B., Xolmirzayev U. A., Polatov A. X. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2013.
10. Abdulazizovich X. U. B. "Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishining ustuvor yo'nalishlari". Journal of New Century Innovations, 74(2), 65–70, 2025.
11. Abdulazizovich X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent, 2023.
12. Ишимбаев Р. Н., Холмирзаев А. Х. "Цифровизация малого и среднего предпринимательства в Узбекистане". Экономика и социум, (7 (86)), 304–307, 2021.
13. Kholmirzaev A. "Ways of small business development". Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 162–167, 2020.
14. Kholmirzaev A. K. "Criteria and directions of development of small business activities". Academia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 730–735, 2021.
15. Xapizovich X. A. "Directions of Poverty Reduction Based on the Development of Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan". Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(12), 632–636, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>